Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 811.512.133

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

O‘ZBEK TILIDAGI POREYONIMLAR (NEXIA va RAVON)NING LEKSIK-SEMANTIK VA NOMINATIV XUSUSIYATLARI

Mirzohid Nosirjon o‘g‘li Muhammadaliyev*

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

✉ bekhmirzokhid27@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek tilidagi Nexia va Ravon Nexia poreyonimlarining etimologik, leksik-semantik xususiyatlari hamda nomlanish motivlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

poreyonim, avtomobil nomi, Nexia, Ravon Nexia, etimologiya, leksik-semantik tahlil, nomlanish motivi kabi

DOI: 10.5281/zenodo.23771680

Kirish. Poreyonimlar onomastikaning poreyonimika sohasi doirasida o‘rganiladigan muhim nominativ birliklar. Mazkur maqolada o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan Nexia va Ravon Nexia poreyonimlarining etimologik, leksik-semantik xususiyatlari hamda nomlanish motivlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – ushbu nomlarning shakllanishi, semantik xususiyatlari va nominativ vazifasini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili. A. V. Superanskayaning “Общая теория имени собственного” asarida atoqli otlarning nazariy xususiyatlari, N. V. Podolskayaning “Словарь русской ономастической терминологи” lug‘atida esa onomastik terminlarning mazmuni va qo‘llanish masalalari yoritilgan. V. D. Bondaletovning “Русская ономастика” asari onomastik tadqiqotlarning nazariy asoslari va metodlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. *Nexia (Neksiya)* – Janubiy Koreyaning Daewoo kompaniyasi 1980-yillarda Germaniyaning *Opel Kadett E* modeli asosida 1994-yilda ishlab chiqargan. O‘zbekistonda 1996-yil iyun oyida Asaka zavodida *Nexia* avtomobili ishlab chiqarila boshlandi. Ushbu nom ostida asosan quyidagi uchta avlod nazarda tutiladi:

Nexia-1 – O‘zbekistonda Asaka zavodida ishlab chiqarilgan birinchi ommaviy xorijiy rusumdagi avtomobil (1996–2008).

Nexia-2 – birinchi avlodning tashqi ko‘rinishi (faralar va bamperlar) hamda saloni yangilangan (restayling) versiyasi (2008–2016).

Nexia-3 – butunlay yangi avlod bo‘lib, u aslida *Chevrolet Aveo (T250)* modelining o‘zgartirilgan varianti hisoblanadi va bozorga *Chevrolet Nexia* nomi bilan chiqarilgan (2016–2022).

Nexia (Neksiya) poreyonimga leksik asos bo‘lgan *nexis* apellyativi tarixiy-etimologik jihatdan lotincha bo‘lib *“bog‘liqlik”*, *“aloqa”* yoki *“birlashtiruvchi zanjir”* ma’nolarni anglatadi. Bizningcha, Janubiy Koreyaning *Daewoo Motors* kompaniyasi o‘zining yangi modeliga ramziy ma’noda avtomobilsozlik taraqqiyoti

va global integratsiyani, avtomobil haydovchi va yo‘lni bir-biri bilan xavfsiz hamda qulay bog‘lab turishini ifodalash maqsadida shunday nom bergan.

O‘zbekistonda 1996-yildan boshlab Asaka avtomobil zavodida mazkur modeldagi mashinalar ishlab chiqarila boshlagach, “Neksiya” poreyonimi o‘zbek tiliga o‘zlashdi va avtomobil haqiqiy xalq mashinasiga aylandi, eng ommabop avtoulov bo‘lib qoldi. O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish sanoati rivojlanganidan so‘ng, yurtimizda ularga talab yanada ortdi.

2008-yilga kelib, o‘zbekona *Nexia* dunyo yuzini ko‘rdi, ya’ni old-orqa bamperlar va chiroqlar, avtomobil saloni yangilandi. Bosh bo‘g‘ini *Opel Kadett*ga borib taqaladigan yangi avlod *Nexia*si O‘zbekistonda 2016-yilga qadar ishlab chiqarildi. Bugun esa Nexia o‘z ismini unga mutlaqo o‘xshashi bo‘lmagan boshqa bir mashina – *Chevrolet Nexia*ga meros qilib qoldirgan.

O‘zbekistonning “xalq mashinasi”ga aylangan Daewoo Nexia modelining uzoq davom etgan tarixi 2016-yilda yakunlandi.

Nexia bir necha yil mobaynida 75 ot kuchiga ega 1,5 litr hajmli dvigatel bilan jihozlandi. Ammo 2003-yildan modelning 1,5 litrli, 85 ot kuchiga ega yangi namunasi paydo bo‘ldi.

2008-yilda Britaniyaning Concept Group injiniring kompaniyasi bilan birgalikda restayling qilingan namunasi taqdim etildi. Neksiyaning yorug‘lik chiroqlari, bamperi, old uskunalar paneli, asboblar kombinatsiyasi yangilandi. Mashinaga ikki xil: 4 silindr (8 klapan)li, 1,5 litrli va 80 ot kuchiga ega SOHC dvigatel hamda 4 silindr (16 klapan)li, 1,6 litrli va 109 ot kuchiga ega DOHC motori o‘rnatildi.

Shunday qilib, 2016-yil avgust oyidan boshlab, GM Uzbekistan matbuot xizmatiga ko‘ra, ushbu mashina yig‘ilishi to‘xtatilgan: avgust oxirida mashinaning oxirgi nusxalari ishlab chiqarilgan. Endilikda, uning nomini avvalgi avloddagi *Chevrolet Aveo* sedani negizida ishlab chiqiladigan *“Ravon Nexia”* modelida ishlatishga qaror qilingan.

Neksiya (Nexia) avtomobili O‘zbekiston avtobozorida eng ommabop va haqiqiy “xalq mashinasi”ga aylangan model hisoblanadi. Tarixiy jihatdan Nexia avtomobillari **3 ta asosiy avlodga (yoki modelga)** bo‘linadi:

1. Nexia 1 (1996-2008 yillar)

O‘zbekistondagi Asaka zavodida (UzDaewooBank) ilk bor 1996-yilda ishlab chiqarila boshlangan. U *Opel Kadett E* modelining bazasida yaratilgan.

Dvigatel turlari: SOHC (8 ta klapanli, 75 ot kuchi) va DOHC (16 ta klapanli, 85 ot kuchi, xalq tilida “Dons”).

Komplektatsiyalari: GL (oddiy, konditsionersiz va gidravlikasiz) va GLE (lyuks, konditsioner, elektr oyna ko'targichlar bilan).

2. Nexia 2 (2008-2016 yillar)

2008-yilda Nexia modelining tashqi ko‘rinishi (farlar va bamperlar) hamda saloni (priborlar paneli) modernizatsiya qilingan restayling versiyasi chiqdi.

Dvigatel turlari: 1,5 litrli SOHC (8 klapan) va Chevrolet Lacetti modelidan olingan kuchliroq 1,6 litrli DOHC (16 klapan, 109 ot kuchi) dvigatellari o‘rnatilgan.

Komplektatsiyalari: Low Cost (eng arzon versiya), Basic va Elegant (konditsioner, gidravlika, quyma disklar mavjud versiya).

3. Nexia 3 (2016-yildan keyin)

Nexia 1 va 2 avlodlari ishlab chiqarishdan olingach, butunlay yangi platformadagi **Nexia 3** (Chevrolet Aveo T250 sedani negizida) ishlab chiqarila boshlandi. Ushbu model dastlab **Ravon Nexia R3**, keyinchalik esa **Chevrolet Nexia** brendi ostida sotuvga chiqdi.

Dvigatel: 1,5 litrli (105 ot kuchi) zamonaviy zanjirli dvigatel.

Uzatish qutisi: 5 pog‘onali mexanik (MT) yoki 6 pog‘onali avtomat (AT) uzatmalar qutisi.

Pozitsiyalari:

1-pozitsiya (LS): Mexanik uzatish qutisi, oddiy salon, konditsionersiz.

2-pozitsiya (LT): Mexanik uzatish qutisi, elektr oyna ko‘targichlar, audio tizim, konditsioner.

3-pozitsiya (LTZ): Avtomat uzatish qutisi, quyma disklar va to‘liq lyuks qulayliklar.

Ravon Nexia deb atalayotgan avtomobil dastlab modeli aslida Germaniyaning *Opel Kadett E* mashinasi asosida Janubiy Koreyaning *Daewoo Motors* kompaniyasi tomonidan 1990-yillarning o'rtalarida eksport bozorlari uchun tanlab olingan va tijoriy maqsadlarda kompaniya nomiga nisbat berib, *Daewoo Nexia* deb atalgan. Keyinchalik *Ravon Nexia R3* nomini olgan.

Avtomobil tarixiga nazar solinsa, 1995-yilda Nexia modeli sezilarli darajada yangilangach (restayling qilinganidan keyin), Daewoo uni xalqaro bozorlarga chiqarish uchun *Nexia* deb nomladi (Koreya ichki bozorida u *Cielo* deb atalgan).

Koreya avtomobilsozligiga oid manbalarda Nexia nomi ingliz tilidagi next (keyingi), generation (avlod) va idea (g‘oya) so‘zlarining birikishi asosida shakllangan va “yangi avlod g‘oyasi” ma’nosini anglatadi.[1] Nexia yangi avlodga mansub, zamonaviy kabi ma’nolarni ifodalab, xaridorlarda ijobiy tasavvur uyg‘otishga yo‘naltirilgan tijoriy poreyonimdir.

2015-yilda O'zbekistonda yangi Ravon brendi tashkil etilgach, avvalgi mashhur *Nexia* modeli yangi qiyofada (Chevrolet Aveo T250 bazasida) Ravon Nexia R3 nomi bilan ishlab chiqarila boshlandi va tarixiy nom saqlanib qoldi.

Demak, *Ravon Nexia* poreyonimi mashhur Nexia brendi va ravon so‘zining qo‘shiluvidan sintaktik usulda yasalgan. Nomga leksik asos bo‘lgan *ravon* apellyati o‘zbek tilida ko‘p ma’noli bo‘lib, quyidagi ma’nolarni anglatadi:

Ravon [f. boruvchi, o‘tuvchi; silliq, bir tekis] 1. Bir tekisda va to‘xtovsiz boradigan yoki borayotgan, silliq.

2. Bir tekisda, tinch oqayotgan.

3. To‘g‘ri va tekis (yo‘l haqida).

4. Mantiq va uslub jihatidan puxta va silliq, bir-biriga yaxshi bog‘langan.

5. *ko‘chma.* Silliq, bir tekis.

6. Oson va bir tekisda harakatlanadigan, ishlaydigan.

Bizningcha, ravon apellyativi *to‘g‘ri va tekis (yo‘l) va oson va bir tekisda harakatlanadigan* semalari bilan poreyonimga leksik asos bo‘lgan.

Brend yaratuvchilari (UzAutoSanoat) tomonidan ushbu nom xalqaro bozor uchun maxsus qisqartma sifatida ham tushuntirilgan. Unga ko‘ra, *Ravon* so‘zi inglizcha *Reliable Active Vehicle On Road* iborasining bosh harflaridan olingan qisqartma bo‘lib, *Yo‘ldagi ishonchli va faol avtomobil* degan ma’noni anglatadi. Demak, *Ravon Nexia* poreyonimi aynan mavjud avtomobil nomi (Nexia) negizida yangi avtomobilning takomillashgan texnik imkoniyat va xususiyatlari motivi asosida yuzaga kelgan.

Xulosa. Nexia va Ravon Nexia poreyonimlari etimologik, leksik-semantik xususiyatlari hamda nomlanish motivlari bilan farqlanadi. Tahlil natijasida ushbu nomlarning shakllanishida leksik ma’no, brend an’analari va avtomobilning ijobiy xususiyatlarini ifodalashga intilish muhim o‘rin tutishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 366 с. Search RSL

2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Наука, 1988. –187 с.

3. Бондалетов В. Д. Русская ономастика. – Москва: Просвещение, 1983. –224 с.

4. 박영수. 아반떼, 성능·안전도 앞선 車 – 새 車 이름 무슨 뜻 담겼나 // 중앙일보 URL: https://www.joongang.co.kr/article/3185647

[1]박영수. 「아반떼, 성능·안전도 앞선 車–새 車 이름 무슨 뜻 담겼나」 // 중앙일보 (JoongAng Ilbo). URL: https://www.joongang.co.kr/article/318564